

2019 yilning yanvar-aprel oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida Jizzax viloyatida jami **702,0 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **109,0 %**ni tashkil etdi.



Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **11,7 mlrd.so'm** qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **1,7 %**ni hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **179,2 %**ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **71,0 %** yoki **498,4 mlrd.so'm** to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **111,1 %**ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa **27,3 %** yoki **191,9 mlrd.so'm** to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **100,9 %**ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-aprel oylaridagi qurilish ishlari tarkibi

Yirik qurilish tashkilotlari

-hajm 11,7 mlrd.so'm
-o'sish sur'ati 179,6 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar


-hajm 498,4 mlrd.so'm
-o'sish sur'ati 111,1 %

Norasmiy sektor

-hajm 191,9 mlrd.so'm
-o'sish sur'ati 100,9 %

2019 yil yanvar-aprel oylarida viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining qariyb 71,0 % kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi.

2019 yilning yanvar-aprel oylarida bajarilgan
qurilish ishlari tarkibi (jamiga nisbatan)




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining ulushi **1,7 %**ni tashkil etdi. Viloyatda asosan qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilib, jami qurilish ishlarining **71,0 %**ni tashkil etdi yoki **498,4 mlrd.so'm** to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **111,1 %**ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **191,9 mlrd. so'm**ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmning **27,3 %**ga teng bo'ldi. Shu bilan birga o'tgan yilning mos davriga



nisbatan **100,9 %**ni tashkil etdi.


**2019 yilning yanvar-aprel oylarida
shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari
(jamiga nisbatan %da)**



Viloyatda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Paxtakor tumanida (80,9 %), Jizzax shahrida (80,6 %), Zarbdor tumanida (78,7 %), Yangiobod tumanida (78,1 %), Sharof Rashidov tumanida (73,9 %) to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Arnasoy (29,0 %) va Forish tumanlarida (46,9 %) kuzatildi. Bu hududdagi qurilish ishlarining asosiy qismi norasmiy sektor hissasiga to'g'ri keldi – hududdagi jami qurilish ishlarining 71,0 %, Forish tumanida 53,1 %ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



Qurilish ishlarining shahar va tumanlar kesimida eng yuqori o'sish sur'ati Mirzacho'l, Zomin tumanlari hamda G'allaorol tumanlarida kuzatildi.

Mirzacho'l tumanida asosan qurilayotgan namunaviy loyihalardagi turar joylarining qurilish ishlari jadal borishi tufayli o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **137,5 %** bo'lishi ta'minlandi.

Zomin tumanida yuqori o'sish sur'ati, yani **125,6 %** kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan qurilgan ijtimoiy soha obyektlari va barpo etilayotgan sotish uchun mo'ljallangan turar joylar qurilishining natijasidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda noturar binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami

qurilish ishlari hajmidan **78,7 %**ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **6,3 %** punktga ko'paydi.

Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi joriy davrda **12,7 %**ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **5,2 %** punktga kamaydi, maxsus qurilish ishlari hissasiga esa **8,6 %**ga to'g'ri keldi.


2019 yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi

(mlrd.so'm)

	Jami qurilish ishlari	shu jumladan qurilish ishlari tarkibi bo'yicha		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik korxonalar va mikrofirmalar	norasmiy sektor
Jizzax viloyati	702,0	11,7	498,4	191,9
Jizzax shahar	300,6	9,5	242,3	48,8
tumanlar:				
Arnasoy	10,3	-	3,0	7,3
Baxmal	31,6	-	17,0	14,6
G'allaorol	53,3	-	32,3	21,0
Sharof Rashidov	101,3	-	74,9	26,4
Do'stlik	20,0	-	9,0	11,0
Zomin	41,6	0,6	19,2	21,8
Zarbdor	33,5	-	26,4	7,1
Zafarobod	10,0	-	5,1	4,9
Mirzacho'l	17,4	1,6	11,5	4,3
Paxtakor	43,4	-	35,1	8,3
Forish	25,0	-	6,0	13,3
Yangiobod	14,0	-	5,6	3,1

2019 yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari

(mlrd.so'm)



Shahar va tumanlar kesimida bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Jizzax shahrida **300,6 mlrd. so'm**ni tashkil etdi. Buning sababi Shahar qiyofasini tubdan yangilash, sotish uchun qurilayotgan ko'p qavatli uylar, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, ijtimoiy soha va ko'ngil ochish maskanlarini barpo etilayotganini takidlash mumkin.


Shu bilan bir qatorda qurilish ishlari yuqori sur'atlarda bajarilayotgan qurilish ishlari hajmi Sharof Rashidov tumanida kuzatildi. Bajarilgan qurilish ishlari **101,3 mlrd. so'm**ni tashkil etdi.




Bajarilgan qurilish ishlarining asosini namunaviy loyihalar asosida

qurilayotgan uylar qurilishi tashkil qilmoqda.

2019 yil yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarining Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

2019 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari (mlrd.so'mda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi ishlarining qurilish loyhalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallangan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida **78,7 %**ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatgichga nisbatan **6,3 %** punktga ko'paydi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda **12,7 %**ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **5,2 %** punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari xissasida esa **8,6 %** to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatgichga nisbatan **1,1 %** punktga kamaydi.


2019 yil yanvar-aprel oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi (mlrd. so'm)

	yanvar-aprel	
	2018 y.	2019 y.
Qurilish ishlari hajmi	584,9	702,0
<i>shu jumladan:</i>		
davlat	40,4	17,0
nodavlat	544,5	685,0

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan **685,0 mlrd. so'mlik** qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining **97,6 %**ni tashkil qildi.



2019 yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari, (jamiga nisbatan)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilagan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Jizzax shaxriga **42,8 %**ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sharof Rashidov tumaniga **14,4 %**, G'allaorol tumaniga **7,6 %** va Zomin tumaniga **5,9 %**ga to'g'ri keldi.

Jizzax viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: **D.Mullajonov**
 Aloqa telefoni: **(0371) 230-83-55**